OLIY O'QUV YURTLARI NOBIOLOGIK YO'NALISHLARI TALABALARIDA EKOLOGIYA FANINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA MUHIMLIGI

Maxammadiyeva Munisa Abdusalom qizi
Qarshi davlat universiteti, tayanch doktoranti
+998972009353

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.24139993***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nobiologik yo'nalishlarda ekologiya fanini o'qitishning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, talabalarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni yoritib berilgan. Mazkur fan nafaqat ekologik bilimlarni shakllantiradi, balki barqaror rivojlanish g'oyalarini, yashil iqtisodiyot va rivojlanish tushunchalarini singdiradi hamda hayotga tatbiq etishda muhim pedagogik omil sifatida xizmat qiladi. Nobiologik yo'nalishlarda ekologiya fanini o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanib, nafaqat nazariy bilimlarni, balki ekologik qadriyat va mas'uliyatni ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Tadqiqot ishida "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" hamda "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish" fanlarining o'quv dasturi ishlab chiqilgan. Unga mos ravishda ma'ruza, amaliy va mustaqil ishlarining mavzulari shakllantirilgan va ta'lim jarayonida joriy etishga erishilgan.

Kalit so'zlar*: ekologiya, atrof-muhit, ekologik ta'lim, nobiologik yo'nalish, ekologik madaniyat, ekologik kompetensiya, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, yashil rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются значение, цели и задачи преподавания экологии в небиологических областях, а также его роль в развитии экологических компетенций студентов. Этот предмет не только формирует экологические знания, но и прививает идеи устойчивого развития, концепции «зелёной» экономики и развития, выступая важным педагогическим фактором в его реализации. Преподавание экологии в небиологических областях является неотъемлемой частью современной системы образования и играет важную роль в формировании не только теоретических знаний, но и экологических ценностей и ответственности.*

В ходе научно-исследовательской работы разработана учебная программа по предметам «Экология и охрана окружающей среды» и «Охрана окружающей среды и зеленое развитие». В соответствии с ней сформулированы и внедрены в учебный процесс темы лекций, практических и самостоятельных работ.

Ключевые слова*: экология, окружающая среда, экологическое образование, небиологическая область, экологическая культура, экологическая компетентность, устойчивое развитие, «зелёная» экономика, «зелёное» развитие.*

Abstract: *This article examines the importance, goals and objectives of teaching ecology in non-biological fields, as well as its role in developing students' environmental competencies. This subject not only forms environmental knowledge, but also instills ideas of sustainable development,*

the concept of a "green" economy and development, acting as an important pedagogical factor in its implementation. Teaching ecology in non-biological fields is an integral part of the modern education system and plays an important role in the formation of not only theoretical knowledge, but also environmental values and responsibility.

In the course of research work, a curriculum was developed for the subjects "Ecology and Environmental Protection" and "Environmental Protection and Green Development". In accordance with it, the topics of lectures, practical and independent work were formulated and introduced into the educational process.

***Keywords**: ecological, environment, environmental education, non-biological area, ecological culture, ecological competence, sustainable development, green economy, green development.*

KIRISH

Globallashuv jarayonida ekologik muammolar dunyo miqyosida eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Sayyoramizda sodir bo‘layotgan atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, chiqindilar muammosi, iqlim o‘zgarishi kabi omillar insoniyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solmoqda.

Chunonchi, respublikamiz hududida ham ekologik muammolarning mavjudligi va murakkablashuvi, har bir insonni atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishini talab etadi. Qolaversa, ushbu muammolarning yechimi nafaqat mutasaddi kishilarning, balki barcha insoniyatning vazifasidir. Shu sababli, nobiologik ixtisoslik yo‘nalishlarida ekologiya fanini o‘qitish bugungi kunda strategik zaruratga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qaroriga O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida Oliy ta’lim tizimining ekologik ta’limni takomillashtirish va rivojlantirish zarurligiga alohida e’tibor qaratilgan, barcha turdagi ta’lim muassasalarida ekologik ta’limning majburiyligi qayd etilgan. Ekologik ta’limning asosiy maqsadi biosferaning barcha qatlamlarida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga ongli munosabatni shakllantirishni va ekologik bilimlardan xabardor bo‘lgan ekologik dunyoqarashi va madaniyati shakllangan yuksak ma’naviyatli inson shaxsini voyaga etkazishni ko‘zda tutadi [1].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlar ekologik muammolarni hal qilish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda asosiy rol o‘ynaydi [2]. 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish ko‘plab mamlakatlar ta’lim siyosatida ustuvor yo‘nalish hisoblanadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizning yangi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sharoiti yuksak kasbiy mahoratga ega, malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi vaqtda mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirish orqali ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish zarurati dolzarbdir. Shu bois, ekologik bilimlarni biologiya sohasi bilan chegaralab bo‘lmaydi. Bugungi iqtisodiyot, menejment, energetika, axborot texnologiyalari, oziq-ovqat texnologiyalari, huquqshunoslik, pedagogika, filologiya kabi yo‘nalishlarda ham ekologik bilimlar zarurligi asoslanmoqda.

© **Namangan davlat pedagogika instituti** | **Tabiiy fanlar kafedrasi**
© “**Smart Quill Publishing” nashriyoti** | **www.smartquillpublishing.uz**

Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Hozir ekologiya xuddi raqamli texnologiyalarday dolzarb. Kelajakda hamma soha atrof-muhit bilan hamohang bo‘ladi”.

Shu munosabat bilan 2024-yilning 29-oktabrda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi sohasida kadrlar tayyorlashni amaliyot bilan muvofiqlashtirish to‘g‘risida” gi 407-sonli buyrug‘i imzolandi [4]. Ushbu buyruqqa asosan, ikkita muhim masalani amalga oshirish nazarda tutilgan. Xususan, 2025-yil yanvardan boshlab bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatini inobatga olgan holda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishlari yuqori bosqich talabalarining amaliyotlarini dual ta’lim tizimida yo‘lga qo‘yish masalasi bo‘lib, Qashqadaryo viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasida Agrokimyo va ekologiya kafedrasining filiali tashkil etildi. Shu bilan birga, 2025-2026 o‘quv yilidan boshlab bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatini inobatga olgan holda o‘quv rejalari tanlov fanlari blokida sohaga yo‘naltirilgan “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” fani o‘qitilishini ta’minlash choralarini ko‘rish vazifalari belgilangan [4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur buyruq nobiologik ta’lim yo‘nalishlarida “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” fanini o‘qitishning o‘ta dolzarb vazifalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Shu bois, Qarshi davlat universitetining ko‘plab nobiologik yo‘nalishlari o‘quv rejasiga tanlov fan sifatida “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” hamda “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish” fanlar kiritildi. Xususan, iqtisodiyot, inson resurslarini bosqarish, marketing, axborot tizimlari va texnologiyalari, rangtasvir, dizayn, filologiya va tillarni o‘qitish, kimyo, geografiya va boshqa shu kabi yo‘nalishlar. Mazkur fanni o‘qitish maqsadida barcha yo‘nalishlar uchun mos bo‘lgan mavzular tanlab olindi. Ma’ruza, amaliy va mustaqil dars mashg‘ulotlarida mavzularning bir-biriga bog‘liqlik jihatlari va bir-birini to‘ldirib borishiga katta ahamiyat berilgan. Mavzulardagi tizimlilik va uzviylik yoshlarda ekologik tushuncha va ko‘nikmalarni tarkib toptiradi, barcha mutaxassisliklar uchun xos bo‘lgan universal kompetensiyani shakllanishiga olib keladi. Buning natijasida talabalarda fan-texnika taraqqiyotining tabiatga ta’siri, biosferaning o‘zgarishi, insonning xo‘jalik faoliyatini tabiatga salbiy va ijobiy ta’siri haqida tasavvur shakllanadi, hamda talabalar turli darajadagi ekologik muammolarni tahlil qila olish, tabiatdan foydalanishning ekologik prinsiplari, o‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofazasi bo‘yicha yechimlar topa bilish, tadbirlarni rejalashtira olish va amalga oshirish ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

Shuni aytish joizki, nobiologik ixtisoslik yo’nalishlarining tor (spetsifik) xususiyatidan kelib chiqqan holda mazkur o‘quv dasturini 5-10% atrofida o‘zgartirish ya’ni moslashtirish, talabalarga berilayotgan ekologik bilimlar doirasini yanada mukammallashtiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Jamiyatda fuqarolarning ekologik savodxonligini sezilarli darajada oshirish, shaxsning individual qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan yangi qadriyatlarni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji bo‘lajak mutaxassislarning ekologik ta’limini takomillashtirishga jiddiy talablar qo‘yadi. Ekologik ta’lim yagona yaxlit jarayon sifatida ma’lum ijtimoiy voqelik kontekstida mavjud bo‘lib, uni belgilovchi ijtimoiy hodisalardan ajralgan holda ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Ekologik

ta’limning ijtimoiy jihati uning jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-ekologik asoslari bilan bog‘liq. Ekologik ta’lim muayyan ijtimoiy muhitda ishlaydi, u o‘z izini qoldiradi va o‘zi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ekologik ta’limning ijtimoiy jihatlari ta’lim jarayonini nazariy va pedagogik tahlil qilishni davom ettirishi va chuqurlashtirishi lozim. Universitet talabalariga ekologik ta’limning ijtimoiy jihatlari bo‘lajak mutaxassislarga nafaqat tahliliy, balki prognostik (oldindan bashorat qilish) xarakteriga ega bo‘lgan ekologik bilim, ko‘nikma va malakalarni berish zarurati bilan bog‘liq.

Insoniyat va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, ilmiy, estetik, axloqiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlaridan xabardor bo‘lish aholining ekologik bilimlarini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi [5].

Ekologik ta’lim, ekologik muammolardan xabardor bo‘lgan, bu muammolarga befarq bo‘lmaydigan va ularni hal qilishda hissa qo‘shishga tayyor insonlarni yetishtirishga qaratilgan. Tabiatga befarq bo‘lmagan shaxslarni tarbiyalash, ekologik ko‘nikma, bilim, motivatsiya va mas’uliyatga ega bo‘lgan aholini shakllantirish ekologik ta’limning asosiy global maqsadlaridan biridir [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, nobiologik yo‘nalishlarda ekologiya fanini o‘qitish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, nafaqat nazariy bilimlarni, balki ekologik qadriyat va mas’uliyatni ham shakllantiradi. Bu jarayon orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlaydigan, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadigan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Nobiologik yo‘nalishlarda ekologiya fanini o‘qitish jarayonida quyidagi muhim jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

1. Nobiologik yo‘nalishlar uchun ekologiya fanining maxsus dasturlarini ishlab chiqish. Bugungi kunda ekologik muammolar sayyoraviy va umuminsoniy xarakterga ega bo‘lib, nobiologik ixtisoslik talabalarida ham ekologik bilimlarning zarurati yuzaga keldi. Chunki har bir soha tabiat va resurslardan foydalanadi hamda atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bu yo‘nalish talabalari uchun o‘qitiladigan “Ekologiya” kurslarida mutaxassisliklar xususiyatidan kelib chiqqan holda, muayyan mavzularga asoslangan maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz.

2. O‘qitishda interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash. Ekologiyani o‘qitishda an’anaviy uslublar yetarli emas. Chunki ekologik bilimlar amaliyotga yo‘naltirilgan, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydigan jarayonni talab qiladi. Shu sababli interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Bunda talabalarda mustaqil fikrlash, tabiat bilan uyg‘un ishlash, muammoga kreativ yondashish ko‘nikmalari shakllanadi. Ekologik ta’limda samaradorlik ortadi va talabalarda “Ekologiya” zerikarli fan emas, balki zamonaviy va hayotiy soha sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish. - Dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida ekologiya ta’limi bolalar bog‘chasidan boshlab oliy ta’limgacha uzluksiz tarzda yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston uchun esa xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganib, ta’lim tizimiga moslashtirish zarur. Bu yondashuv bizda ekologik ong va madaniyatni yanada samarali

shakllantirishga xizmat qiladi. Buning natijasida talabalar xalqaro darajadagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, jamiyatda ekologik ong va mas’uliyat yanada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” gi 2019 yil 27 may 434-sonli qaror.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi. (2021). Yoshlar va barqaror rivojlanish maqsadlari: muammolar va imkoniyatlar. https://www.undp.org/youth-and-sustainable-development-goals-challenges-and-opportunities.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi. (2022). Yoshlar va atrof-muhit: ekologik xabardorlikni va harakatni rivojlantirish. https://www.epa.gov/youth-and-environment

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi sohasida kadrlar tayyorlashni amaliyot bilan muvofiqlashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 29 oktabrdagi 407-son buyrug‘i.

5. Дадабаева Н.Н. Содержание экологического образования будущих учителей общественно – гуманитарных специалностей. – Автореферат. 2009

6. Atasoy E., Sedanur A. Dünyada ve türkiye'de çevre eğitiminin tarihsel gelişimi. - Global Challenges for Global Science III. Bursa, Turkiya, 2023.

© **Namangan davlat pedagogika instituti** | **Tabiiy fanlar kafedrasi**
© “**Smart Quill Publishing” nashriyoti** | **www.smartquillpublishing.uz**